

# RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH VA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMoya QILISH QO'MITASINING OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA TAKLIFLARI

---

1) Har bir Respublika darajasidagi tashkilotlarning rasmiy veb saytlarida “O'zbekiston-2030” strategiyasi doirasida qabul qilinadigan Davlat dasturilarida **mas'ul etib** belgilangan topshiriqlar hamda ularning ijro holatlari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni **har chorak** yakuni bo‘yicha kiritib borish.

*na'muna*

**Davlat dasturida \_\_\_ mas'ul etib belgilangan topshiriqlar ijro holati  
to‘g‘risida**

## MA'LUMOT

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati (bugungi kunda)
1	2	3	4	5	6

**Izoh:** Davlat dasturida Qo‘mita mas'ul etib belgilangan topshiriqlar hamda ularning ijrosi to‘g‘risidagi ma'lumotlar har chorak yakunidan keyingi oyning 15 sanasiga qadar joylashtirilib boriladi.

---

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydag‘i “O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PF-5729-sonli** farmoniga muvofiq, davlat organlari korrupsiya xavf-xatariga eng ko‘p duch keladigan davlat xizmatchilarining faoliyat sohalari va lavozimlari, shuningdek, ularning funksiyalari (vakolatlari)ning ro‘yxatini shakllantiradi hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimum darajaga tushirish choralarini ko‘radi.

Lekin, mazkur faoliyat sohalari va lavozimlar e'lon qilib borilmaydi. Shunga ko‘ra, davlat organlari korrupsiya xavf-xatariga eng ko‘p duch keladigan davlat xizmatchilarining faoliyat sohalari va lavozimlari, shuningdek, ularning funksiyalari (vakolatlari)ning ro‘yxatini majburiy

tartibda e'lon qilib borish amaliyotini joriy qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

---

**3)** Bugungi kunda korxonalarini qo'shib olish, ta'sischilarining ulushini o'zgarishi bo'yicha ma'lumotlarni farqatgina bir tomonlama yetarlicha ochiq bo'lмаган holatda taqdim etilmoqda. Ushbu jarayonni to'liq yoritish, onlayn rejimda, oson topiladigan, tushunish oson bo'lган usulda Ochiq e'lon qilib yetkazilishi maqsadga muvofiq.

---

**4)** Bugungi kunda Davlat idoralari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga yuborilayotgan (*yuridik va elektron pochta orqali*) xatlar o'z vaqtida va umuman yetib bormayapti. Shuningdek aksariyat hollarda xatlar javobsiz qolmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri tadbirkorlarning yuridik va elektron pochta manzillari va telefon nomerlari to'g'ri yozilmagan yoki o'zgartirilgan. Yuqoridaagi kabi ma'lumotlarni ochiq e'lon qilib borish tizimini joriy etish va ularning to'g'riliği ustidan jamoatchilik nazorati tizimini joriy etish.

---

**5)** Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi joriy etilgan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tayyorlangan va tasdiqlangan monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobot o'zlarining rasmiy veb-saytida joylashtirib boriladi.

---